Ключевые слова: Надежность программного обеспечения, диагностика, технологическая ошибка, моделирование, контроль, тестирование, измерения сложности программного обеспечения.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi bilan milliy iqtisodiyot, shuningdek, tarmoqlar va korxonalar raqobatbardoshligining ahamiyati ortib bormoqda. Bunda muhim omillardan biri sifatida xo'jalik yuritish va boshqaruv faoliyatida axborot tizimlari barqarorligiga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda.

Jahon miqyosida noaniqlik muhiti sharoitida korxonalarning beqaror ishlash statistikasi tahlil qilinganda, texnologiyalardagi xatolar AQSh iqtisodiyotiga yiliga 59,5 milliard dollar zarar yetkazishi aniqlangan. Masalan, Fors ko'rfazi urushi davrida “Patriot” raketa tizimidagi dasturiy xatoliklar AQSh mudofaa sanoatining ham ma'lum muddat kuchsizlanishiga sabab bo'lgan [1]. Shuningdek, 2019-yilda Facebook, Instagram va WhatsApp platformalari shunday muammo tufayli bir necha soat ishlamay qolgan va butun dunyo bo'ylab millionlab foydalanuvchilarning aloqasi uzilgan.

AQSh Federal aviatsiya ma'muriyati (FAA) ma'lumotlariga ko'ra, 2001–2010-yillar oralig'ida havo harakatini boshqarish tizimlarida texnologik xatolar bilan bog'liq 252 ta holat qayd etilgan [2]. Bunday muammolarning oldini olishda korxona faoliyatida axborot tizimlari barqarorligini ta'minlash zaruriy shart hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dasturiy ta'minot qo'llanilmaydigan soha yoki tarmoq bugungi kunda deyarli qolmadi. Shu sababli iqtisodiy obyektlarning dasturiy ta'minoti, axborot tizimlari, aloqa vositalari va ma'lumotlarni qayta ishlash mexanizmlarini uzviy ravishda ko'rib chiqish, shuningdek, real vaqt tizimlarida yuz beradigan xatoliklar hamda nosozliklarning tabiatini o'rganish muhimdir.

Elektron qurilmalar ko'pincha noaniq muhitda ishlaydi. Elektromagnit shovqin, kuchlanishning o'zgarishi, yuqori yoki past harorat sharoitlari yarim o'tkazgichli qurilmalarda davriy yoki doimiy nosozliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa real vaqt tizimlarida muqarrar xatoliklarni keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatdan chiqish uchun real vaqt tizimlari odatda xatoliklarga chidamli mexanizmlarga ega. Ammo mavjud mexanizmlar ayrim turdagi xatoliklarga bardosh bera olsa-da, ularning qo'llanish doirasi cheklangan.

Chen X va hammualliflar [3] xatolik yuz berish xavfi Puasson jarayoniga adekvat degan faraz asosida nosozlikka chidamli model taklif qilgan. Ularning yondashuvi real vaqt rejimida tizim xatosi stsenariylarini yaratishda kenglikni aylanib o'tish usullarini qo'llash orqali rejalashtirilgan. Tadqiqotda ishlab chiqilgan yangi algoritm tizimning ishonchligini hisoblashga mo'ljallangan bo'lib, tajriba natijalari baholash usulining samaradorligini ko'rsatgan.

Bugungi kunda aviatsiya elektron qurilmalari (avionika), missiyani hisoblash va avtomobil boshqaruvi kabi xavfsizlik uchun muhim tizimlarda o'rnatiladigan dasturiy ta'minot tashqi ogohlantirishlardan ma'lumot to'plash va turli shovqinlar hamda ekologik buzilishlarga o'z vaqtida javob berish uchun ishlatilmoqda [3]. Bunday tizimlarning asosiy xususiyati — ularning ishonchligi hisoblanadi. Real vaqt rejimida tizimning nosozliklarga chidamlilik darajasini aniq baholash talab etiladi. Aks holda vaqt me'yorlariga javob bermaslik tizimning ishdan chiqishiga va halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Ishonchlik [4] — bu tizim yoki komponentning ma'lum vaqt davomida belgilangan sharoitlarda o'z vazifalarini bajarish qobiliyatidir. Masalan, IEC 61508 standarti [5] xavfni baholash usullarining majmuini taklif etadi.

O'rnatilgan dasturiy ta'minotning xavfsizlik talablarining ortib borishi tufayli xatolarga chidamlilik va ishonchlikni baholash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. An'anaviy yondashuv asosan dasturiy ta'minotni testlash jarayonida topilgan xatoliklar ma'lumotlariga asoslanib, kelajakdagi xatoliklarning ehtimolini bashorat qiladi.

Bunday hollarda Monte-Karlo modellash usuli [6] kabi statistik usullar qo'llanilib, vaqtinchalik nosozliklarni bartaraf etish imkoniyatlari o'rganilgan. Shu bilan birga, hisob-kitoblarning murakkabligi va namunalarning ko'pligi ayrim ishlab chiquvchilarni nosozliklarga chidamlilikni rejalashtirish va ishonchlikni tahlil qilish masalalariga alohida e'tibor qaratishga majbur etgan.

Rejalashtirish tahlilida A. Bums va hammualliflar [9] barcha vazifalar belgilangan muddatlarda jadval bo'yicha bajarilishi lozimligi haqidagi ehtimoliy kafolat modelini ishlab chiqqan. Keyinchalik I. Broster va hammualliflar [10] ushbu yondashuvni kengaytirib, javob vaqtining ehtimollik taqsimotidan foydalanib, CAN tarmoqlari uchun nosozlik ehtimolini aniq prognozlash usulini taklif etgan. Biroq ushbu yondashuvlarning ba'zilar [9,10] ma'lum cheklovlariga ega bo'lib, ko'pincha haddan tashqari pessimist natijalarga olib keladi.

Xavfsizlik uchun muhim ilovalar, hatto xatolar mavjud bo'lsa ham, to'g'ri va belgilangan muddatlarda ishlashi kerak. G. M. de A. Lima va hammualliflar [11] xatolarga chidamli talabchan real vaqt tizimlari uchun javob berish vaqtini rejalashtirishning eng noqulay tahlilini taklif qilib, yuqori ustuvorlik bilan boshlanadigan vazifalarning tiklanishini hisobga oldilar va tizimning xatolarga chidamliligini oshirish uchun maxsus imtiyozga ega algoritmi joriy etdilar [43]. Natijada, ular protsessordan ortiqcha vaqt foydalanish va nosozliklarga chidamlilik o'rtasidagi munosabatni hal qilishga urindilar.

Li Jun va hammualliflar [12] nosozliklarga chidamli ustuvorliklarni belgilashga doir yangi algoritmi taklif qildilar. U quyidagilarni hisobga oladi: cheklangan ustuvorlik darajalariga asoslanganlik [13], ixtiyoriy uzoq muddatli xatolarga bardoshlilik [14], hamda mushkul real vaqt muammolari uchun eng yomon holatlarda javob berish vaqtini rejalashtirish tahliliga egalik. [14] manbada tizimni loyihalashning dastlabki bosqichida guruhli proaktiv rejalashtirish va vaqt xususiyatini sinovdan o'tkazish uchun eng uzoq javob vaqti muhokama qilingan. Biroq bu usullar, asosan, vazifalarning ustuvorligini rejalashtirish va ko'rib chiqishda tizim ishonchligini baholash uchun ehtimollik modelining mavjud emasligi bilan bog'liqdir.

M. Sebastian va hammualliflar [15] ma'lum vaqt oralig'ida tizimning chidamliligini hisoblashga mo'ljallangan ishonchlikni baholash usulini taqdim etdilar. Statistik modellashdagi xatoliklar bilan solishtirganda, raqamli tahlil usuli tez va aniq bo'lsa-da, u oldindan aytib bo'lmaydigan rejalashtirish strategiyasi bilan CAN tarmoqlarida qo'llanilgan.

S. Gui va hammualliflar [16] muvaffaqiyatsizlik holatlarida rejalashtirish imkoniyatini tahlil qilish uchun ishonchlik modelini taklif etdilar va eng yomon stsenariyda ham vazifalarni rejalashtirish ehtimolini hisobladilar. Biroq bu yondashuvda ishonchlikka ta'sir etuvchi vaqt omili inobatga olinmagan.

V. Izosimov va hammualliflar [17, 18] real vaqt rejimida ishlashni ta'minlash uchun bir nechta optimallashtirish algoritmlarini taklif qildilar. Ular vaqtinchalik nosozliklar uchun qayta bajarish va takrorlashni boshqarish orqali taqsimlangan, ruxsat etilgan tizimlardagi xavfsizlik uchun muhim ilovalarni aniqladilar.

Murakkablik natijalari interpretatsiyasi

Muvaffaqiyatli IT-mahsulotini ishlab chiqish bir qator majburiy bosqichlarga ega bo'lgan murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Ushbu bosqichlarning ba'zilar parallel ravishda amalga oshirilishi mumkin. Ta'kidlash joizki, outsorsing kompaniyalari mahsulotni ishlab chiqish bosqichlarini turlicha belgilaydilar. Shu bois, mijoz dasturlarini ishlab chiqish jarayonining to'liq shaffof bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bosqichlarini aniqlashda turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Masalan, [19] manbada kompyuter tarmoqlari va tizimlariga tahdid turlari hamda lokal va korporativ tarmoqlarni Internet hujumlaridan himoya qilish usullari va vositalari muhokama qilingan. Unda, shuningdek, elektron biznes va elektron tijoratda axborot xavfsizligini ta'minlash muammosiga alohida e'tibor qaratilgan. Axborot xavfsizligi konsepsiyasi ta'riflangan va tarmoqlarda xavfsizlik siyosati aniqlangan.

Zamonaviy dasturiy ta'minot tobora murakkablashib bormoqda va yaqin kelajakda yanada murakkablashishi ehtimoli yuqori. Masalan, 1983-yilda Microsoft Word dasturi bor-yo'g'i 27 000 qator koddan iborat bo'lgan bo'lsa, [20] ma'lumotlariga ko'ra, 1995-yilga kelib u 2 million qator kodga yetgan. Dasturchilar vaqt o'tishi bilan dasturiy ta'minot hajmini o'lchash uchun turli birliklarni ishlab chiqdilar. Biroq kod satrlari soniga bog'liq yagona o'lchov birligi mavjud bo'lib, u “LOC” (lines of code) deb ataladi.

Darhaqiqat, ayrim dasturlash doiralarda kod satrlari soni dasturiy ta'minot hajmining yagona qabul qilingan o'lchoviga aylangan [20]. Kodning ming satriga to'g'ri keladigan xatolar soni (KLOC) esa har bir dastur turiga qarab farqlanadi. Ishonchli qiymat sifatida kodning 1000 satriga 5 tadan 50 tagacha xato to'g'ri kelishi mumkin [21]. Hatto sifat nazoratidan (Quality Assurance – QA) qattiq o'tkazilgan tizimlarda ham xatolarning mavjudligi kuzatiladi va bu odatda 1000 satr koda 5 ta xato atrofida bo'ladi [20].

Zamonaviy dasturiy ta'minotning murakkabligini anglash uchun 1-jadvalga [21] murojaat qilishning o'zi kifoya qiladi. 1-jadval

1-jadval. Zamonaviy dasturiy ta'minotning murakkablik o'lchamlari

Dasturiy vosita (obyekt)	Kosmik stansiya	Kosmik kema	Boeing 777	Windows NT5	Linux 2.6	Windows 2000	Windows HP	Windows 7
Kod satrlari, mln	40	10	7	35	5,6	35	45	>60

Katta ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish tizimlarini o'z ichiga olgan murakkab axborot va kompyuter tizimlarida tizimlarning ishonchsizligi holatlarining qariyb 40 foizi dasturiy ta'minot (DT) hissasiga to'g'ri keladi. Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, bu ko'rsatkich texnik vositalar (kompyuterlar) hissasidan ham yuqori bo'lishi mumkin. Sababi, kiritiladigan ma'lumotlar murakkabroq bo'lishi mumkin va ularning formati doimiy ravishda o'zgarib turadi [20].

Uskunalar ishonchligi, odatda, dizayn xatolari, ishlab chiqarish nuqsonlari va ishlamay qolish darajasi bilan (fizik jarayonlarga bog'liq holda) cheklanadi. O'z tabiatiga ko'ra dasturiy ta'minot texnik vositalarga nisbatan ancha murakkab hisoblanadi. Zamonaviy axborot va kompyuter tizimlarida dasturiy vositalar hajmi 10^6 – 10^8 yoki undan ortiq buyruqlar (axborot kodlari) bilan baholanadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'n yoki undan ortiq yillik tajribaga ega professional dasturchilar ham 1000 ta kod satriga o'rtacha 131,3 ta xatoga yo'l qo'yishadi [22]. Ulardan 50 foizgacha kompilyatsiya bosqichida aniqlanadi (agar translyatorda mukammal ogohlantirish tizimi mavjud bo'lsa). Qolgan 50 foiz yoki undan ortig'i esa alohida modullarni testdan o'tkazish jarayonida aniqlanadi.

Sinalgan dasturiy ta'minotda esa turli hisob-kitoblarga ko'ra, bajariladigan kodning 1000 satriga 5 tadan 100 tagacha xato to'g'ri keladi [22]. Testlash jarayonida dasturiy ta'minot o'z funksiyalarini to'g'ri bajarayaptimi yoki yo'qmi, shuni aniqlashga qaratiladi. Shunga qaramay, ko'pgina tijorat dasturlarida vaziyat baribir qoniqarsiz bo'lib qolmoqda. Buni 2-jadval yaqqol ko'rsatadi.

2-jadval. Turli tijorat korxonalarida yaratilgan dasturiy ta'minotdagi 1000 qator kodga o'rtacha xatoliklar

DT vazifasi, yaratuvchisi	Intel	Microsoft	Linux	NASA	Tijorat amaliy DT
1000 kod qatoriga o'rtacha xatolik (defekt) soni	4...5	8...18	8...34	3...8	15...48


TADQIQOT TAHLILI

Jahonda Internet tarmog'ining kengayishi barcha IT o'zgarishlari natijasida yagona axborot makonining shakllanishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy subyektlarning axborot tizimi barqarorligini ta'minlash muammolari bo'yicha keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Korxonalar faoliyatida axborot tizimlari barqarorligini oshirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- aloqa tugunlarida ma'lumotlar tuzilmalarining xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish;
- noaniqlik sharoitida davlat iqtisodiy obyektlari axborot tizimlarining barqarorligini prognozlash va baholash uslubiylarini takomillashtirish;
- korxonalarda barqaror axborot tizimlarini yaratish jarayonini modellashtirish;
- iqtisodiy jarayonlar axborot tizimlari faoliyatining ishonchlilik darajasini oshirish;
- nosozliklar sharoitida qayta ishlanadigan iqtisodiy axborotlar tizimi barqarorligini ta'minlash;
- uzluksiz harakatdagi aloqa tugunlarida ma'lumotlar oqimi o'tkazuvchanlik samaradorligini baholash va prognozlash;
- ekonometrik baholash doirasida analitik va imitatsion modellar natijalarini raqamli transformatsiya mezonlari asosida tahlil qilish;
- korxonalar faoliyati axborot tizimi barqarorligini modellashtirish metodologiyasini yanada takomillashtirish.

Shuningdek, [20]-manbaga ko'ra, hatto qattiq sifat nazorati (QA)dan o'tgan dasturlarda ham xatoliklar saqlanib qoladi. Masalan, har 1000 kod satriga o'rtacha 5 ta xato mavjudligi aniqlangan. Tijorat dasturiy ta'minotlarida esa vazifalarni to'g'ri bajarish kuzatilgan bo'lsa-da, funktsionallik jihatidan operatsion tizimlarda xatolar miqdori yuqoriligicha qolmoqda — har 1000 kod satriga o'rtacha 50 ta xato to'g'ri keladi (1-rasm).



1-rasm. Testdan o'tgan amaliy dasturiy paketlarda har 1000 kod qatoriga aniqlangan xatolarning o'rtacha soni¹

Axborot-kompyuter tizimi yordamida Big Data'ni qayta ishlash uchun foydalaniladigan dasturiy ta'minotning kutilayotgan ishonchlilikini baholashda drayverlarning muqim ishlashini hisobga olish zarur. Bunday dasturiy ta'minotning kutilayotgan ishonchlilikini bashorat qilish modeli va algoritmi amaliy dasturiy ta'minot uchun taklif qilinadiganidan farq qiladi. Hisoblash tizimlaridan foydalanuvchilar, jumladan katta ma'lumotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan tizimlar, amaliyotda qo'llaniladigan tizim dasturiy vositalarining ishonchlilikini qanday baholash mumkinligini bilishni istaydilar. Ushbu masalani hal etish alohida ilmiy tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Dasturiy mahsulotlarni yaratish tarixi davomida dasturiy ta'minotni ishlab chiqish uchun yagona qoidalar va metodologiyalar majmuini shakllantirishga qaratilgan bir qator urinishlar amalga oshirilgan. Eng mashhur ishlab chiqish jarayonlari yirik dasturiy ta'minot kompaniyalariga tegishlidir. Masalan, Microsoft kompaniyasiga tegishli MSF (Microsoft Solution Framework) [20] yoki Rational Software Corp tomonidan ishlab chiqilgan RUP (Rational Unified Process) tizimlarini keltirish mumkin. Biroq, amaliyotda Microsoft o'z mahsulotlarini ishlab chiqishda MSF va Agile methodology texnologiyalarining aralashmasidan foydalanadi. Shu bilan birga, MSFning unifikatsiyalangan freymvorki ko'plab hollarda amaliyotdan ancha uzoqdir. Ko'pgina muvaffaqiyatli dasturiy

¹ Боровиков С.М., Дик С.С. Прогнозирование ожидаемой надежности прикладных программных средств с использованием статистических моделей их безотказности [Электронный ресурс]. URL: <https://libeloc.bsuir.by/handle/123456789/31393>. (дата обращения: 25.04.2018).

ta'minot kompaniyalari ishlab chiqish jarayonida umumiy qabul qilingan yondashuvlar va metodologiyalar to'plamidan foydalanadilar. Dasturiy mahsulotni ishlab chiqishning to'liq sikli talablarni tahlil qilish, arxitektura (dizayn) ishlab chiqish, mahsulotni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish, yakuniy mahsulotni mijozga o'rnatish va qo'llab-quvvatlash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Rejalashtirish odatda menejerlar yoki jamoa rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi, ammo amalda loyiha jamoasidagi har bir xodim bu jarayonda ishtirok etadi [4]. Spetsifikatsiya (xususiyatlar)ni yozish bosqichida loyiha kichik vazifalarga bo'linadi. Ko'pincha dasturchining ishini yakunlashi va testlovchining ish boshlashi orasidagi vaqt oralig'i uzoq bo'ladi. Bu esa ishlab chiquvchiga kodning barcha funksiyalari yoddan chiqmasdan o'z xatolarini tuzatish imkonini bermaydi [22]. Birlik (unit) testlari dasturiy modullar bo'lib, ular berilgan sinfning tashqi metodlari va xususiyatlarini tekshiradi. Manba kodlari ombori loyihaning barcha manba kodlarini bir joyda saqlash, versiya raqami, sana, dasturchi nomi va o'zgarishlar tavsifi bilan barcha o'zgarishlar jurnalini yuritish imkonini beradi. Ushbu funksiyalarni amalga oshiradigan ko'plab dasturlar mavjud bo'lib, eng mashhurlaridan biri bepul dastur – SVN [23].

SVN bilan ishlash haqida ko'proq ma'lumotni “Subversion-da versiyani boshqarish” [24] manbasidan olish mumkin. Vazifalar ombori tizimdagi barcha o'zgarishlarni qayd etadi, vazifalarni relizlar orasida taqsimlaydi va loyiha jamoasi a'zolari uchun yagona boshqaruv maydoni sifatida xizmat qiladi. Bunday tizimlarga misollar sifatida FogBugz [25] va Jira [26]ni keltirish mumkin. Sifatni ta'minlash funksiyalari mahsulot muvaffaqiyatidan hayotiy manfaatdor bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, Apple kompaniyasida ushbu vazifani to'g'ridan-to'g'ri rahbar – Stiv Jobs bajarib kelgan. Natijada oxirgi foydalanuvchilar mahsulotni qanday qabul qilishlari – quvonch, qoniqish yoki befarqlik bilan – aynan shunday sifat nazorati tizimiga bog'liq bo'lgan. Joel Spolsky [27], Fog Creek Software asoschisi va Microsoft Excel yaratuvchilaridan biri, “The Joel Test: 12 Steps to Better Code” [28] testini ishlab chiqqan.

Olimlar katta ma'lumotlar hayotimizda katta rol o'ynashini isbotladilar. Ularsiz bizni o'rab turgan ko'plab tanish narsalarning mavjudligi mumkin emas. Katta ma'lumotlar yordamida ko'plab jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin, bunda inson aralashuvi juda kam yoki umuman yo'q.

Katta ma'lumotlar va zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanmasdan, bugungi kunda biz iste'mol qiladigan barcha xizmatlar bilan zamonaviy dunyoni tasavvur qilib bo'lmaydi. Statistika xizmatida, masalan, 100 terabaytdan ortiq ma'lumot oyida kamida bir marta qayta ishlanadi. Hafta davomida qayta ishlanadigan ma'lumotlar esa bundan o'n barobar ko'pdir.

Tadqiqotning metodologik asosi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanishi, o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni taqdim etish imkonini beradigan tizimli va tahliliy yondashuvdir. U zamonaviy davr klassiklari va olimlarining axborot tizimlarini rivojlantirish va samarali ishlashi sohasidagi nashrlarida aks etgan ilmiy bilimlar hamda ilmiy yutuqlar tamoyillari bilan belgilanadi. Sohadagi axborot tizimlarida dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va qo'llashni optimallashtirish bilan shug'ullanuvchi zamonaviy olimlarning ishlanmalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirishga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlari uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda axborot tizimlari va texnologiyalari yangi texnologik tartibni ishlab chiqishning asosiy vositasidir. Shuningdek, odamlarning hayot sifatini oshirish, milliy xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalar ham istisnosiz shu qatarga kiradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, zamonaviy axborot tizimlarining samarali ishlashida dasturiy ta'minot muhim rol o'ynaydi.

Dasturiy ta'minotni ma'lumotlarni samarali va optimal qayta ishlash uchun mo'ljallangan dasturlar, qoidalar va tegishli tizim hujjatlari to'plami sifatida ta'riflash mumkin.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda barcha tarmoq ma'lumotlari statistika organlarida jamlangan va bu boradagi ishlarni tashkil etish respublikadagi barcha korxonalardan davriy ravishda hisobotlarni talab qiladi. Shu davrda dasturiy ta'minot 24/7 qoidasiga muvofiq, ya'ni onlayn rejimda ishlaydi.

Bu muammo bo'yicha yechim boshqa maqolada [29] xususiy hol uchun berilgan. Yanada to'liqroq ma'lumot va eksperimental natijalar olingan qator tadqiqotlar ham mavjud [30, 31, 32].

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Elektron hukumat” tizimida fuqaroning turli davlat tashkilotlari bilan virtual aloqasini yo'lga qo'yishda elektron tizimda axborot almashish, soliq to'lovlarini undirish, hisobotlar tuzish va moliya organlari bilan aloqalarni tashkil etish vazifalari amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, statistika xizmatida ham quyi bo'g'indagi tuman statistika bo'limlaridan respublika, viloyat va shahar darajasida axborot almashish, uzatish va qabul qilish funksiyalarini bajaruvchi dasturlar amaliy faoliyat yuritmoqda. Soliq tizimi, bojxona, g'aznachilik, sug'urta, pensiya ta'minoti va boshqa davlat tashkilotlarida ham shunday vazifalardan tashqari yangi masalalarni dasturlash muammolari yuzaga kelmoqda.

Mazkur dasturlarga qo'yiladigan talablar nosozliklar sharoitida turli chalg'ish, og'ish yoki buzilishlarga chidamlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishini taqozo etadi. Hozirgi davrda real vaqt rejimida faoliyat yurituvchi

kompyuter tizimlari va dasturiy ta'minotni turli xavf-xatarlardan himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash hal qilinishi zarur bo'lgan eng asosiy muammolardan biriga aylanib bormoqda.

Shu jihatlarni inobatga olgan holda, yangi dasturlar yaratish va kompyuter axborot tizimlarini takomillashtirish yo'lida o'tiladigan bosqichlarni modellashtirish hamda ketma-ket bajarish jarayonlarini formallashtirish masalasini ko'rib chiqish har doim dolzarbdir. Axborot tizimlarini yaratishning barcha bosqichlari klassik konsepsiyani hisobga olishi bilan bir qatorda, axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi ham e'tibordan chetda qolmasligi lozimligini ushbu maqola yana bir bor ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Institute of Standards and Technology (NIST) -<https://www.nist.gov/>
2. Federal Aviation Administration (FAA)- <https://www.faa.gov/>
3. Chen X., Hou W., Zhang Y. Reliability Evaluation of Embedded Real-time System based on Error Scenario. From the book Current Trends in Computer Science and Mechanical Automation Vol.2 Published by De Gruyter Open Poland 2022 <https://doi.org/10.1515/9783110584998-056>
4. IEEE (1990) 610.12–1990 – IEEE Standard Glossary of Software Engineering Terminology, pp 1-84
5. International Electrotechnical Commission (2010) Functional safety of electrical/electronic/ programmable electronic safety-related systems.
6. M. Sebastian, R. Ernst (2008) Modelling and Designing Reliable On-Chip-Communication Devices in MPSoCs with Real-Time Requirements. In: 13th IEEE International Conference on Emerging Technologies and Factory Automation, pp.1465-1472.
7. T. Anderson, J.C. Knight (1983) A Framework for Software Fault Tolerance in Real-Time Systems. IEEE Transactions on Software Engineering, SE-9(3): 355-364.
8. C. M. Krishna, A. D. Singh (1993) Reliability of Checkpointed real-time systems using time redundancy. IEEE Transactions on Reliability, 42(3): 427-435
9. A. Burns, S. Punnekkat, L. Strigini, D.R. Wright (1999) Probabilistic scheduling guarantees for fault-tolerant real-time systems. In: Dependable Computing for Critical Applications, pp.361-378
10. I. Broster, A. Burns, G. Rodriguez-Navas (2002) Probabilistic analysis of CAN with faults. In: 23rd IEEE Real-Time Systems Symposium, pp 269-278.
11. G. M. de A. Lima, A. Burns (2001) An Effective Schedulability Analysis for Fault-Tolerant Hard Real-Time Systems. In: 3th Euromicro Conference on Real-Time Systems, pp 209-216.
12. G. M. de A. Lima, A. Burns (2003) An Optimal Fixed-Priority Assignment Algorithm for Supporting Fault-Tolerant Hard Real-Time Systems. IEEE Transactions on Computers, 52(10): 1332-1346.
13. Li Jun, Yang Fumin, Lu Yansheng (2005) A Feasible Schedulability Analysis for Fault-Tolerant Hard Real-Time Systems. In: Proceeding of the 10th IEEE International Conference on Engineering of Complex Computer Systems, pp 176-183.
14. Li Jun, Yang Fumin, Tu Gang, Cao wanhua and Lu Yansheng (2007) Schedulability Analysis for Fault-Tolerant Hard Real-Time Tasks with Limited Priority Levels. In: The 4th International Conference on Autonomic and Trusted Computing, pp 529-538.
15. Li Jun, Yang Fumin and Lu Yansheng. (2007) Schedulability Analysis for Fault-Tolerant Hard Real-Time Tasks with Arbitrary Large Deadlines. In: the 6th International Symposium on Parallel and Distributed Computing, pp 149 – 156.
16. Z. Wu, L. Wang, G. Yang, Z. Zheng (2005) Schedulability Analysis For Fault-Tolerant Group-Based Preemptive Scheduling. Journal of Pervasive Computing and Communications, 1(3): 71-76.
17. M. Sebastian, R. Ernst (2009) Reliability Analysis of Single Bus Communication with Real-Time Requirements. In: 15th IEEE Pacific Rim International Symposium on Dependable Computing, Shanghai, pp.3-10.
18. S. Gui, L. Luo (2013) Reliability analysis of real-time fault-tolerant task models. Design Automation for Embedded Systems, 17(1): 87-107.
19. V. Izosimov, P. Pop, P. Eles, Zebo Peng (2005) Design optimization of time- and cost-constrained fault-tolerant distributed embedded systems. In: Proceedings of Design, Automation and Test in Europe, pp 864- 869.
20. Eles, V. Izosimov, P. Pop, Zebo Peng (2008) Synthesis of Fault-Tolerant Embedded Systems. In: Proceedings of the conference on design, automation and test in Europe, pp 1117–1122.
21. S.K. Ganiyev, M.M. Karimov, K.A. Tashev. Axborot xavfsizligi. -T.: «Fan va texnologiya», 2017,372 bet.
22. Michael S. V. Turner. Microsoft® Solutions Framework Essentials. Microsoft, 2006.
23. Method for predicting the reliability of applied software at the early stages of their development S.M. Borovikov, S.S. Dick, N.K. Fomenko. DOI: <http://dx.doi.org/10.35596/1729-7648-2019-123-5-45-51>
24. Kent Beck. Test Driven Development: By Example. Addison-Wesley Professional, 2002.
25. <http://tortoisesvn.tigris.org/>
26. <http://svnbook.red-bean.com/>
27. <http://www.fogcreek.com/FogBugz/>
28. <http://www.atlassian.com/software/jira/>
29. <http://www.joelonsoftware.com/AboutMe.html>
30. <http://www.joelonsoftware.com/articles/fog0000000043.html>
31. Н.Ю. Власова, А.А.Абидов, И.Е. Жуковская. Современные аспекты оптимизации разработки и использования программного обеспечения отраслевых информационных систем в условиях формирования цифровой экономики. "Иқтисодийот ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил

32. A. Experimental Results of Econometric Modeling of Economic Processes. NEW2AN/ruSMART 2023, LNCS 14543, pp. 86–94, 2024. https://doi.org/10.1007/978-3-031-60997-8_9
33. Абидов А.А. Онлайн ахборот тизимларида хатоликларни аниқлаш усуллари амалиёти. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari» elektron jurnali | 2025 йил, №1, yanvar-mart – 9-18 б, <http://dgeconomy.tsue.uz>
34. Abidov, A.A. (2023). Simulation Modeling of Reliability of Packet Switching Unit. In: Koucheryavy, Y., Aziz, A. (eds) Internet of Things, Smart Spaces, and Next Generation Networks and Systems. NEW2AN 2022. Lecture Notes in Computer Science, vol 13772. Springer, Cham., p. 38-45. https://doi.org/10.1007/978-3-031-30258-9_4.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI